

TALABALARNI TANQIDIY FIKRLASHGA O'RGATISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MOHIYATI

Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi,
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari kognitiv, hissiy, dunyoqarash va xulq-atvorga doir kasbiy sifatlar insonparvarlik, fuqarolik, kreativlik, novatorlik va ma'naviy kompetentlik, pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda tanqidiy fikrlash ko'nikamasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim, tarbiya, hamkorlik, insonparvarlik, empirik, kognitiv, evristik, kreativ, pedagogik texnologiyalar.

СУТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ КРИТИЧЕСКОМУ МЫШЛЕНИЮ

Xurramova Санобара Махматмурада кизи,
Преподаватель Термезского государственного
педагогического института

Резюме. В данной статье рассмотрены психолого-педагогические особенности развития у студентов критического мышления, познавательных, эмоциональных, мировоззренческих и поведенческих профессиональных качеств, гуманизма, гражданственности, творчества, инновационной и духовной компетентности, вопросы развития навыков критического мышления студентов на основе педагогических технологий.

Ключевые слова: студент, педагог, образование, воспитание, сотрудничество, гуманистические, эмпирические, когнитивные, эвристические, творческие, педагогические технологии.

THE ESSENCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING STUDENTS TO CRITICAL THINKING

Xurramova Sanobar Mahmatmurod qizi,
Teacher of Termiz State Pedagogical Institute

Annotation. This article describes the psychological-pedagogical features of developing students' critical thinking, cognitive, emotional, worldview and behavioral professional qualities, humanitarianism, citizenship, creativity, innovation and spiritual competence, issues of developing students' critical thinking skills based on pedagogical technologies.

Keywords: student, teacher, education, upbringing, cooperation, humanitarian, empirical, cognitive, heuristic, creative, pedagogical technologies.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q" deya e'tirof etib, yoshlarning yer yuzida bo'layotgan voqealarni shakllantirish, mustaqil izlanish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash milliy qadriyatning yuksalishida hamda davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoriga chiqishida muhim omil ekanligiga e'tiborni qaratdi. Aynan yoshlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda: "Bizni hamisha o'yantirib keladigan yana bir muhim masala-bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapdi. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'p his etadigan kim-yoshlar mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin, lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishiga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" – deya e'tirof etdilar [1]

Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy, kreativ va tanqidiy fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayrat -shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni yanada oshirish, ilmiy va ilmiy –pedagog kadrlar tayyorlash ko'lamenti kengaytirish - eng muhim masalalardan biridir. Oliy o'quv yurtlari nufuzini

oshirish, nodavlat ta'lim maskanlari sonini ko‘paytirib, yuqori malakali kadrlarni jalg etish va raqobatni kuchaytirish lozim. Chunki jamiyatimizda oliy ma'lumotga ega, yuksak malakali mutaxassislar qancha ko‘p bo‘lsa, rivojlanish shuncha tez va samarali bo‘ladi.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlari talabalarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish pedagogdan katta mahorat, qobiliyat va tajribani talab etadi. [2]. Professor-o‘qituvchilarning eng muhim talaba-yoshlarga puxta bilim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir.

Talabalarni tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish muammosini tadqiq etar ekanmiz, avvalo pedagogik texnologiya, tanqidiy fikrlash tushunchalari haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo‘lishimiz lozimdir.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik texnologiyalarning mohiyati va mazmunini aniqlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, mongrafiya va qo‘llanmalar (V.P. Bespalko, V.V. Guzeev, M.V. Klarin, V.M. Monaxov, V.Yu. Pityukov, G.K. Selevko va boshqalar), maqolalar (T.S. Nazarova, L.Ya. Dyachenko va boshqalar) tahlili shundan dalolat beradilki, pedagogik texnologiyalar tuzilmasida quyidagi yo‘nalishlari alohida ajralib, ulardan asosiyлari empirik, kognitiv, evristik, kreativ, inversion, integrativ, idativ, inkluzivpedagogik texnologiyalardir. Bu yo‘nalishlaming asosiy xususiyatlari quyidagicha:

Empirik - sezgi a’zolari orqali bilim olish. Bu texnologiyada asosiy e’tibor sezgi a’zolarining tabiiy rivojlanganlik imkoniyatlariga tayangan holda bilim berish va ularni yanada takomillashtirib borishga qaratiladi.

Kognitiv - atrofdagi olam to‘risidagi bilimlar doirasini kengaytirish texnologiyasi. U tabaqalashtirilgan (tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish) tafakkurni, tanqidiy fikrlashni shakllantiradi, bilish ehtiyojlarini rivojlantiradi.

Evristik – yo‘naltiruvchi savollar berish yo‘li bilan ta’lim berish lozim. Topqirlik, faollikni, diqqat e’tiborni rivojlantirishga xizmat qiluvchi, o‘quv-izlanish ta’lim metodi bo‘lib, optimallashgan (bir necha variantlardan eng ma’qulini, mosini, muvofig‘ni tanlash) tafakkurni rivojlantiradi.

Kreativ - tadqiqot xarakteriga ega bo‘lib, talabalarda maqsadga yo‘naltirilgan ijodiy tafakkurni va tanqidiy fikrlashni jadal rivojlantiradi.

Inversion - axborotlarni turli tomonidan o‘rganish, o‘rnini almashtirish xususivatigaega bo‘lib, tanqidiy fikrlash tizimini rivojlantiradi.

Integrativ - axborotlarni tashkil qiluvchi cheksiz ko‘p kichik qismlarning o‘zaro ajralmas bog‘liqligi, ularning yaxlitligi, bir butunligi asosida yagona to‘g‘ri xulosani aniqlash.

Adativ - axborotlarni va ulardan foydalanish jarayonini o‘rganish hamda o‘rgatish uchun qulaylashtirish va moslashtirish asosida kutilgan natijaga erishish.

Inkluziv – o‘qituvchi bilan talabalarning o‘zaro munosabatlarida tenglik asosida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.

Hozirda zamnaviy pedagogik texnologiyaning yuqorida aytilganlardan tashqari mutaxassislar tomonidan tajriba-sinovlar olib borilayotgan boshqa yo‘nalishlari ham mavjud. [5].

Ma’lumki, kishi bilayotgan va o‘zlashtirayotgan narsaga tanqidiy munosabatda bo‘lmasa, bilish faoliyatida tafakkurning mustaqilligi bo‘lmaydi.

Tafakkuming tanqidiyligi kishi o‘zining va boshqalarning fikrlarini qat’iy baholay olishi, ilgari surilayotgan hamma qoida vaxulosalarini to‘la-to‘kis isbotlash va har tomonlama tekshira olishi bilan xarakterlanadi. [4]. Tanqidiy taxlitdagi tafakkurgaega bo‘lgan kishi hech mahal o‘z fikrlarini absolut haqiqiy, benuqson va to‘liq deb baholamaydi. U hamma vaqt ularni amalda tekshirish, sinashga intiladi va agar uning fikrlari haqiqatga to‘g‘ri kelmasa, u javob metodlari va dalillarni qidiradi. Tanqidiy tafakkur [3]- bu avvalo, hamma narsani ishonarli deb qabul qilmaydigan tartibli, qat’iy va mas‘ul aqldir. Notanqidiy taxlitdagi tafakkurga ega bo‘lganlar o‘zi to‘qash kelgan har qanday axborotni va boshqalar singdirgan g‘oyalarni o‘zimniki deb hisoblab, qabul qiladi. Shuning uchun bugungi kunda jamiyatning rivojlanish bosqichida, O‘zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tanqidiy tahlil jarayoni muntazam davom etishi shart tanqidiy fikrlash natijasi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir. Bu narsa sodir bo‘lishi uchun o‘qituvchilar dars o‘tishda beixtiyorlik va ta’lim-tarbiya jarayonida zamnaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi kerak.

Xo‘sh, tanqidiy fikrlashning o‘zi nima? Uning ta’rifiga kelsak, turli xil fikrlar va baholashlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar fikricha «tanqidiy fikrlash», «analitik fikrlash», «mantiqiy fikrlash», «ijodiy fikrlash» va boshqalar - va biz bu so‘zning etimologiyasini eslab, bunga qo‘shilishimiz mumkin. «Tanqid» (yunoncha kritike - «baholash, tahlil qilish, muhokama qilish»); Binobarin, «tanqidiy» - «baholash, tahlil qilish». Tanqidiy fikrlash (muqobil ravishda dogmatik) ijodiy, analitik va konstruktiv fikrlash sifatida tushunilishi mumkin. Pedagogik nuqtai nazardan, biz uni faol va interaktiv bilish

jarayoni sifatida ko'rib chiqamiz. Tanqidiy fikrlash - bu interaktiv, ijodiy, aks ettiruvchi fikrlash. Tanqidiy fikrlash o'z «men» ni tushunish va amalga oshirishni anglatadi obyektiv, mantiqiyl, boshqa nuqtai nazarlarni idrok etish.

Bundan tashqari “Taqnidiy fikrlash” atamasining bir qancha ta'riflari mavjud. Jumladan, J. Still, K. Meredis va Ch. Templing “Чтение и письмо для развития критического мышления”, (“Taqnidiy fikrlashni riv lantirish uchun o'qish va yozish») nomli qo'llanmasida o'qitishning universal asoslarining tizimi sifatida, unda o'qitishning interaktiv uslublarini keng miqyosda qoilanilishi tanqidiy fikrlashni samarali rivojlanishiga imkon berishi bayon etilgan.

Amerikalik mashhur faylasuf va pedagog D. Dyui tanqidiy fikrlashning mazmun-mohiyatini quyidagicha ta'riflaydi: “Insonning sharoitlar va tajriba natijalariga nisbatan tanqidiy fikrlashigina shaxs istagi va qiziqishlarini to‘g‘ri yo‘lga solaoladi”.

Dayana Xalpem o‘zining “Психология критического мышления” («Taqnidiy fikrlash psixologiyasi») kitobida yozishicha: «tanqidiy fikrlash ko‘zlangan natijaga erishish ehtimolligini orttiruvchi bilishgaoid malakalar va strategiyani yuritishning shunday ko‘rinishini anglatadiki, u vazminlik, mantiq va maqsadga yo‘naltirilganlik bilan ajralib turadi». [6].

Anderson va uning hammulliflarining ta'kidlashicha, “Yangi vaziyatlar uchun qollanilayotgan samarali uzlucksiz ta'lim biz uchun axborot vag‘oyalarning tushunarli bo‘lishi muammosini tashkil qiladi. O‘quvchi-talabalar axborot vag‘oyalarni faoliyat bilan o‘zlashtirgandaginaeng yuqori natijagaerishishi mumkin”.

Polinskar va Braunning ta'biri bo‘yicha “fikrlash faoliyatini rivojlantirishning turli strategiyalari qo‘llanilgandaginao‘qish jarayoni muvaffaqiyatiroq bo‘ladi. Bunda strategiyalar o‘quv jarayonini onglioq bo‘lishini ta‘minlaydi”.

Resnik talqinicha, “o‘quvchi-talabalar o‘z bilimlarini muayyan masalalarni yechishda tatbiq etaolsalargina ularda bilim va ijodiy fikrlash rivojlanadi”.

Rossning ta'kidlashicha, “talabalarning oldin egallagan bilimlariga va tajribalariga asoslangan o‘qish mustahkam bo‘ladi. Bularning hammasi talabalarga yangi axborotni bilganlari bilan bog‘lash imkoniyatini beradi”.

Benks ta'rifica, “O‘qituvchilar g‘oyalar va tajribalarning turli-tumanligini to‘g‘ri tushunsalargina tanqidiy fikrlash vao‘qish yaxshi natija beradi. Agar “yagona bitta javob” ruhi ustuvorlik qilsa, unda tanqidiy flkrlashga yordam beradi”.

Agapovning ta'kidlashicha, “Taqnidiy fikrlash - talabalarga matn bilan ishslash malakasini rivojlantirish, og‘zaki va yozma nutqning barcha ko‘rinishlarini egallsh, muayyan matn bo‘yicha tengdoshlari bilan fikr almashuv (muloqot malakalari, guruh bilan ishslash malakalari) ga yo‘naitirilgan pedagogik texnologiyadir”. Tanqidiy fikrlash o‘quv xonasidagi muhitni o‘zgartirib, unga jo‘shqinlik tusini berish, mashg‘ulotlarni esapedagog va talabalar quvonchiga aylantirishdir. Bunday texnologiya fikrlilik va matnni sharhlash nuqtayi nazarining ko‘pligi va bilish jarayonining refleksivligi, madaniyatni zamonaviy tushunish kabi g‘oyalarga asoslanadi. Shaxs qadriyati g‘oyasi va uning rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash va ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoit yaratishning so‘zsiz ustuvorligi eng muhim hisoblanadi.

Jon Barrell tanqidiy fikrllovchi insonlarning quyidagi xususiyatlarini belgilaydi: muammolarni hal qilaoladi; muammolarni hal qilishda ma'lum bir matonat ko‘rsatish; o‘zini, impulsivligini nazorat qilish; boshqag‘oyalarga ochiqlik; boshqa odamlar bilan hamkorlik qilish orqali muammolarni hal qilaoladi; suhabatdoshni tinglay oladi; empatik; noaniqlikkachidamlikkaega bo‘ladi; muammolarni turli nuqtai nazaridan ko‘rib chiqsa oladi; • hodisalar o‘rtasida ko‘plab aloqalarni o‘rnatishga qodir; o‘z nuqtai nazaridan boshqa nuqtai nazarga toqat qiladilar; muammoni hal qilishning bir nechta variantlarini ko‘rib chiqishi mumkin; tez-tez savollar bering: “Agar nima bo‘lsa?..”; mantiqiyl xulosalar quraoladi; his-tuyg‘ulari, fikrlari haqida fikr yuritish - ularni baholash; bashorat qilish, ularni asoslash vao‘z oldiga faol maqsadlar qo‘yishga qodir; o‘z ko‘nikma va bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llay oladi; qiziquvchan va tez-tez “yaxshi savollar” beradi; axborotni faol idrok etadi.[7]

Xulosa qilib aytganda, “Odam tanqidiy fikrlar ekan, u yoki bu g‘oyalar bilan tanishadi, ularni amalga oshirishdagi muhum bo‘lgan oqibatlarni ham e‘tiborgaoladi. Bunda odam bu g‘oyalarni dastlab ma'lum darajadagi ishonchsizlik bilan idrok qiladi va qarama-qarshi nuqtayi nazarlar bilan taqqoslaydi. Ularni asoslash uchun qo‘srimcha mulohazalar tizimidan foydalanadi va bular asosida o‘z nuqtayi nazarini ishlab chiqadi”. Tanqidiy fikrlash - g‘oya va imkoniyatlarni ijodkorlik bilan uyg‘unlashuvi, konsepsiyanı qayta qurishdek murakkab jarayondir. Bu faol va interaktiv bilishning bir necha darajalarida bir vaqtida ro‘y beradigan jarayon ham hisoblanadi. Tanqidiy fikrlaydigan shaxsga hech qanday turli hiylanayranglar va nosog‘lom g‘oyalar ta’sir qilmaydi, chunki u o‘zining qat’iy shaxsiy qarashlariga ega bo‘ladi.

Takliflar 1.Talabalarning tanqidiy fikrlash rivojlanishi uning barcha tarkibiy qismlari bo‘lgan talabalarning ijodkorligini shakllantirish maqsad va vazifalari,mazmuni vosita, shakl va metodlari, natija va ularning tahlillari bir butun yahlitlikda qaralganda hamda bu tizim tarkibiy qismlarining o‘zaro mushtarakligi, mutonosibligi ta’minlanganda kutilgan darajada bo‘ladi.

2. Tanqidiy fikrlash faoliyatni ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi talab etadi.

3.Muammoli xarakterga egalik, ijodiy yo‘naltirilganlik, imkoniyatlarni oshirib borish, individuallikka erishish, ijodkorlikning yorqin namoyon bo‘lishi, bir butunlik, izchillik, tizimlilik, shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda orttirgan sifatlarining o‘zaro uyg‘unligi kabi tamoyillarga bo‘ysinuvchi o‘quvchilarning ijodkorlik potensialini bilish va undan unumli foydalanish ijodiy faoliyatni rivojlantiradi.

4.Ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi, hamda hamkorlikda o‘qitish kabi tamoyillarini to‘liq hisobga olgan holda o‘qituvchi va talabalar o‘zaro hamkorlik munosabatlarini amalga oshirish talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

5.Talabalarda tanqidiy fikrlash muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ularning kreativligini tavsiflaydigan individual qobiliyatlariga alohida e’tibor qaratish lozim (talaba fikrining ravonligi, fikrni maqsadga muofiq yo‘llay olishi, onglilik, qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati va hakozo).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyov ishtirokida davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqi. Тошкент, 12.07 2017-йил.
2. Shodmonova Sh. Oliy o‘quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta’limi yo‘nalishi misolida). Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 340 b.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar - T.: “Qarshi” - 2000.114b.
4. Azizzoxjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar vapedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti. 2006, 109 b.
5. Mavlonova R.A., Arabova M., SalohiddinovaG’. Pedagogik texnologiya. –T: “Fan” - 2008. 124 b.
6. To‘rayevaO., Xoliqberdiyev K., Pedagogika (darslik) – T: “O‘qituvchi” - 2008. 469b.
- 7.Shodmonova Sh. Oliy o‘quv yurti talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (Kasb ta’limi yo‘nalishi misolida). Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2010. – 340 b.